

## ZULFIYAXONIM IJODIGA BIR NAZAR.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7618574>



ELSEVIER



Received: 07-02-2023

Accepted: 08-02-2023

Published: 22-02-2023

Namuna Abduraxmonova

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi  
fakulteti 1 kurs, 108 guruh talabasi



### Abstract:

### Keywords:

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Sarin shabbodalar hur-hur keza boshlagan iforli damlar O'zbekiston Xalq shoirasi Zulfiyaxomim tavallud topgan kun bilan chambarchas bog'langanligi ham yaratganning bir inoyatidir balki... Havolar tozarib ko'ngillar bayt-u o'lan sari oshiqqan ko'klam pallasida nafaqat vafo va sadoqat kuychisi, balki jamiyat po'rtanalariga "yelka tutgan" jasoratli qalb egasi sharafiga musharraf bo'lgan shoiramizning aziz xotirasini qumsadik.

Zulfiya Isroilova - taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o'tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonovor kurashgan ayol. Zulfiya she'riyatning nufuzi – bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir. Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yil 1-mart kuni Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang'ich mакtabda, so'ng xotin-qizlar bilim yurtida tehsil olgan. 1935-1938 yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Til va Adabiyot instituti aspiranturasida o'qigan. Shoira she'rlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarini ilg'ovchi qizaloq ekanligi bilan ajralib turgan. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni anglatardi. Shoira bolaligini shunday eslaydi: "Otamni...Isroil degrez der edilar. Otam zaxmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rар edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Men hali-hanuz otamday bo'lishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muyassar bo'lavermas ekan..."

Mening onam o'zining ta'bincha, "usti butun-ichi tutun" ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi, lekin fikrlari, o'ylari mudroq emasligini unga mutelik, zaiflik yot ekanligini bilar edim. Ruhidagi ma'yuslik, ovozidagi hazinlik faqat uning xarakteriga xos bir sifatgina edi, xolos.

Zulfiya she'riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiyatini g'ajib tashlay oladigan hijron to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmagan.

- "Zulfiya iste'dodi o'z davrida umum mamlakat adabiyotida alohida xodisa bo'lган", deya ta'kidlagan O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov. Chindan ham tarixiy qismat Sharq ayolining ovozini jahon minbariga olib chiqish sharafi va zaxmatini Zulfiya Isroilova zimmasiga qo'ydi. Bu ma'suliyat uning ijod ufqini va hayot tarzini belgiladi, taniqli jamoat arbobi sifatidagi tinchlik va xalqlar do'stligining jarchisi sifatidagi o'rnini ta'minlaydi. "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" she'ri dunyoning qaysi tiliga tarjima qilingan bo'lsa, o'sha yurt, millat onalaring orzu-istiklarining nidosi bo'ldi. "Mushoira" ash'ori esa Osiya va Afrika yozuvchilarining birdamlik xarakatining madhiyasidek jarangladi.

Zulfiyaxonim 1935-yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va uning bevaqt vafotidan so'ng ko'plab mahzun she'rlar yaratgan. Pushkin, Lermontov, Nekrasov, L.Ukraina, V.Inber va boshqa ko'plab shoirlarning asarlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Zulfiya she'riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho'qqisi bo'lmish odamzodga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan.

Zulfiyaxonim o'zlarining she'rlari bilan, iboli va hayoli fe'li atvori bilan, pokiza e'tiqodiyu zukko fikrlari bilan har bir o'zbek ayolining hayotida katta o'rinn olgan, ma'naviy dunyosining katta bir qismini tashkil qilgan inson bo'lgan desam xato qilmayman.